

Bugungi bunyodkorlik ishlarimiz el-yurtimiz ulkan salohiyatining yorqin ifodasidir



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-oktyabr kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent metropolitenining Yunusobod yo'nalishi ikkinchi bosqichida olib borilayotgan qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Keyingi yillarda Toshkent metropolitenini rivojlantirish, uning yangi yo'nalishlarini ishga tushirish va yo'lovchilarga yanada qulayliklar yaratish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shahar transport tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, metropoliten aholiga poytaxtning istalgan hududiga tez va xavfsiz yetib olish imkonini beradi. Bundan tashqari, barcha metro yo'nalishlarida bepul Wi-Fi ishlamoqda, kelasi yildan Toshkent metropolitenida uyali aloqa tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Bularning barchasi metroda yo'lovchi tashish ko'lamini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda ushbu jamoat transporti xizmatidan kuniga 240 ming yo'lovchi foydalansa, jami 21 kilometrdan iborat uchta yangi – Yunusobod, Sergeli va Qo'yliq yo'nalishlari qurilishi natijasida yana 150 mingdan ziyod kishi qamrab olinadi. Bu aholiga katta qulaylik yaratish barobarida, ko'chalardagi tirbandlikni bartaraf etish va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Prezidentimizning 2016-yil 7-noyabrdagi qaroriga muvofiq, barpo etilayotgan metropolitenning Yunusobod yo'nalishi ikkinchi bosqichi bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytiradi.

Inshootning umumiy qiymati 103,8 million dollar bo'lib, qurilish boshlanganidan buyon 67,5 million dollarlik ish bajarilgan. "Shahriston" bekatidan qariyb 3 kilometr yo'l tortilib, ikkita yangi – "Yunusobod" va "Turkiston" stansiyalari qurilgan. Tunnelning o'ng qismi to'liq burg'ulanib, temir-beton bilan mustahkamlangan. Chap tunnelni burg'ulash, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini ko'chirish tez kunlarda yakunlanadi. Yangi metro bekatlarida qurilish-montaj ishlari jadal olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari "Turkiston" bekatida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirib, qurilish sifati va yo'lovchilar uchun qulayligiga alohida e'tibor qaratdi.

– Bu bunyodkorlik ishlari xalqimizga bo'lgan yuksak ehtiromimiz ifodasidir. Shu bois, eng muhimi, sifatga e'tibor qaratish kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qurilish ishlariga Germaniya texnologiyasi va mutaxassislari jalb etilgan. Sifat va xavfsizlik ham Germaniya standartlariga muvofiq bo'ladi.

Davlatimiz rahbari bu yerga o'tgan yilgi tashrifi chog'ida metropoliten va avtobus qatnovlarini optimallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur bosqichning ishga tushirilishi natijasida Yunusobod tumanida qatnaydigan avtobuslar soni va masofasi ancha qisqarib, kuniga 5,5 tonna yoqilg'i iqtisod qilinadi. Yo'lovchilarning manziliga yetib olishi 20 daqiqaga tezlashadi.

Shu yerda "Buyuk ipak yo'li" metro bekatidan "Toshkent traktor zavodi" avtoshohbekatigacha bo'lgan yangi yo'nalish, Samarqand xalqaro aeroportining yangi terminali loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Chilonzor tumanidagi "Oriyent keramik" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda eksportga yo'naltirilgan yangi turdagi raqobatbardosh qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ushbu mahsulotlarga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirishga alohida e'tibor qaratilayotir. Bu esa mahalliy va xorijiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Davlatimiz rahbari 2017-yil Chilonzor tumaniga tashrifi doirasida "Oriyent keramik" korxonasi loyihasi bilan tanishgan, uni o'z vaqtida va sifatli yakunlash bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Shundan so'ng korxonaga Chilonzor tumani hududidan 3,6 gektar joy ajratildi. O'tgan vaqt mobaynida zamonaviy korxonada binosi qad rostlab, xorijdan keramika mahsulotlari va kafel ishlab chiqaradigan uskunalar keltirib o'rnatildi.

Shavkat Mirziyoyev mazkur korxonaning ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi, ishchilar bilan muloqot qildi.

Joriy yil iyul oyida faoliyat boshlagan korxonaning umumiy qiymati qariyb 14 million dollar bo'lib, yiliga 3,6 million kvadrat metr keramik mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ayni paytda bu yerda 270 ishchi va mutaxassis mehnat qilmoqda.

Ahamiyatli jihati, korxonada mahsulotlari deyarli 100 foiz mahalliy xomashyodan tayyorlanmoqda. Shu bois bu yerda tayyorlanayotgan kafellar xorijnikidan bir necha

barobar arzon narxlarda ichki bozorga chiqarilmoqda.

Ayni paytda korxonalar mahsulotlarining 30 foizi Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Afg'onistonga eksport qilinmoqda. O'tgan oylarda 500 ming dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirilgan.

Prezidentimizga "Oriyent keramik" MCHJ tomonidan 2020-2021 yillarda amalga oshirilishi belgilangan loyiha haqida ham ma'lumot berildi. Umumiy qiymati 25 million dollar bo'lgan loyiha doirasida yiliga 7,3 million kvadrat metr import o'rnini bosuvchi keramogranit kafellar ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Ushbu mahsulotlardan asosan bino va inshootlarning tashqi qismini bezashda foydalaniladi. Korxonalar ishga tushirilgach, yana 700 ta yangi ish o'ri yaratiladi.

O'zbekistonda ilk bor amalga oshirilayotgan ushbu loyiha natijasida 120x60, 90x30, 80x40, 80x80 o'lchamdagi zamonaviy kafellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Hozirda ana shunday mahsulotlar mamlakatimizga to'liq import qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu jamiyat negizida barcha viloyatlarda kichik korxonalar tashkil etish, logistikaga qulay joylar ajratib, ularni keramik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi klaster tizimida ishlatish, mahsulot turini ko'paytirib, narxini tushirish evaziga eksport hajmini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Toshkent shahrida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbariga Chilonzor tumani janubi-g'arbiy sanoat hududida amalga oshirilgan loyihalar haqida ma'lumot berildi. Unga ko'ra, 313 gektar maydonda tashkil qilingan 256 korxonada 9600 dan ziyod ish o'ri yaratilgan.

Shavkat Mirziyoyev har bir loyihani o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati buyurtmasi va "Boshtransloyiha" aksiyadorlik jamiyati loyihasi asosida "Ko'priq qurilish trest" unitar korxonasi tomonidan barpo etilayotgan Toshkent metropolitenining Sergeli metro yo'nalishida qurilish ishlari avjida.

Davlatimiz rahbari mazkur yo'nalishda olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

Loyiha doirasida uzunligi 7,1 kilometr bo'lgan metropoliten liniyasi va 6 ta bekat qurilishi belgilangan. Obyekt qurilishiga 82,6 million dollar mablag' sarflanadi.

2017-2020 yillarda qurib bitkazilishi rejalashtirilgan loyiha boshlangandan buyon 42,44 million dollarlik ish bajarilgan. Ayni paytda "Choshtepa", "Toshkent xalqa yo'li", "Sergeli", "Afrosiyob", "Qipchoq" va "Chinor" kabi 6 ta bekatda qurilish-montaj ishlari davom etmoqda.

Jumladan, "Toshkent xalqa yo'li" bekatida tashqi fasadni marmar bilan qoplash, elektr yoritish va tashqi bezak ishlari yakunlangan. Platforma to'sinlarini montaj qilish ishlari tugallangan. Bekatning yo'lovchi platformasi metall konstruksiyalarini o'rnatish ishlari boshlangan.

"Sergeli" bekatida poydevor quyish, kotlovan qazish, g'isht terish va eskalator poydevorini quyish ishlari to'liq yakuniga yetkazilgan. Qolgan bekatlarda ham bunday ishlar sifatli amalga oshirilgan.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mazkur metro liniyasining ahamiyatli jihati shundaki, u nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyoda ham bugungi kungacha qo'llanilmagan butunlay yangicha estakada usulida bunyod etilmoqda. Bekatlarda yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida maxsus lift va eskalatorlar o'rnatiladi.

Prezidentimizga metro yo'nalishida olib borilayotgan qurilish ishlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Sergeli yo'nalishi Chilonzor liniyasining "Olmazor" bekatiga ulanadi. Shu tariqa aholi ko'p yashaydigan Sergeli tumani shahar markazi va boshqa tumanlar bilan yana bir vosita orqali bog'lanadi. Jumladan, Sergelidan metroga o'tirgan yo'lovchi "Buyuk ipak yo'li" bekatigacha boshqa liniyaga o'tmasdan yetib olishi mumkin.

Davlatimiz rahbari Sergeli yo'nalishining Chilonzor yo'nalishidagi "Olmazor" bekatiga bog'lanadigan qismida amalga oshirilgan qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Sergeli tumanining rivojlanib borayotgani, ko'p qavatli yangi uylar qurilayotgani nuqtayi nazaridan bu metro yo'nalishi ulkan ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Yo'lovchilarning metropolitengacha yetib olishi va metroda harakatlanishi uchun yaratiladigan sharoitlar bilan qiziqdi.

Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumaniga tashrif buyurib, yerusti halqa metrosining qurilishi bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari ushbu yirik qurilish jarayoni bilan bir necha bor tanishgan, bunyodkorlik ishlarini yanada jadallashtirish va sifatli yakunlash bo'yicha topshiriqlar bergan edi.

Uzunligi qariyb 55 kilometr bo'lgan va 35 bekatdan iborat ushbu transport tarmog'i metro loyihasining qiymati 422,3 million dollarga teng. Loyiha besh bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab metroning "Do'stlik" bekatidan "Qo'yliq" bozorigacha bo'lgan qismi quriladi. 11 kilometrlik masofada 7 bekat bunyod etish mo'ljallangan. Ikkinchi bosqichda "Qo'yliq" bozori bilan "Olmazor" bekati bog'lanadi. So'ng "Beruniy" bekatigacha, undan keyin "Bodomzor" bekatigacha bo'lgan qismlar quriladi. So'nggi bosqichda esa halqa metro liniyasi yana "Do'stlik" bekatiga ulanadi.

Davlatimiz rahbari yangi keltirilgan poyezdga chiqib, qurilishi yakunlangan "Do'stlik-2" va "Ohangaron" bekatlari oralig'ida yurib ko'rdi, stansiyalarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Ayni paytda "Do'stlik-2" – "Qo'yliq" yo'nalishida qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Bunyodkorlik ishlariga 2 mingdan ortiq muhandis va ishchi, 300 ga yaqin texnika jalb qilingan.

Bekatlarda yo'lovchilarga qulaylik yaratuvchi zamonaviy texnologiyalar, yo'lkirani elektron to'lash imkonini beruvchi turniketlar, eskalator bilan jihozlangan.

"Qo'yliq" bozorigacha bo'lgan qolgan qismida ham poydevorlar quyilib, tayanch o'rnatish ishlari yakunlangan.

[O'ZA](#)